



1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 24-may, shanba,
61 (24.087)-son

O'zbek xalq
maqoli

Er
yigit elga
tortar

Zarafshon

www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz

MAMLAKATIMIZ MAKTABLARINI BITIRUVCHI O'G'IL-QIZLARIMIZGA

Qadrli farzandlarim!

Avvalo, siz, azizlarni hayotingizdagi bugungi unutilmas quvonchli voqea – maktab ta'limini muvaffaqiyatli tugatib, yetuklik shahodatnomasini qabul qilib olayotganingiz va mustaqil hayotga qadam qo'yayotganingiz bilan samimiy muborakbod etaman.

Ushbu shukuhli ayyomda mamlakatimizdagi 10 mingdan ziyod maktabda mehribon ustozlar, hurmatli ota-onalar ishtirokida "so'nggi qo'ng'iroq"lar jaranglab, 450 ming nafardan ortiq bitiruvchi yoshlarimiz sha'niga ezgu tilaklar bildirilmoqda.

Barchamiz bu fikrlarga chin dildan qo'shilgan holda, katta orzu-umidlar bilan kelajak rejalarini tuzayotgan o'g'il-qizlarimizga ularni amalga oshirishda ulkan kuch-g'ayrat, omad va zafarlar tilaymiz.

Ayniqsa, maktabni oltin medal bilan bitirayotgan 11 ming 500 nafardan ziyod farzandlarimizga, 2 mingdan ortiq kumush medal sohiblariga o'qish va izlanishda, jamoat ishlarida o'z tengdoshlariga doimo o'rnatilgan va namuna bo'lib kelayotganlari uchun alohida tabrik va tilaklarimizni izhor etamiz.

Aziz bitiruvchi yoshlar!

Bugungi kunda biz o'z oldimizga qo'yayotgan buyuk maqsadlarni amalga oshirishda butun xalqimiz qatori, bilimli, hunarli, tadbirkor va vatanparvar, har tomonlama yetuk yoshlarimizga tayanamiz.

Kelajagimiz egalari bo'lgan navqiron avlodimiz Yangi O'zbekistonni barpo etishda katta bunyodkor kuch sifatida ishtirok etishi uchun zarur sharoitlarni yaratib bermoqdamiz. Jumladan, sizlarning zamonaviy ilm va kasb-hunarlar, ona tili bilan birga xorijiy tillar, IT va innovatsion texnologiyalarni, ijod va tadbirkorlik sohalari puxta egallashingiz uchun hozirgi kunda 201 ta oliy o'quv yurti, 598 ta texnikum, ko'plab monomarkaz va texnoparklar, kutubxonalar, madaniyat, san'at va sport muassasalari samarali faoliyat ko'rsatmoqda.

Ta'limning barcha bo'g'inlari-

da o'quv-tarbiya ishlarining sifati va natijadorligini oshirish, bitiruvchi yoshlarimizga tanlov imkoniyatlarini kengaytirish uchun yangi-yangi tizim va dasturlar, elektron platformalar ishga tushirilmoqda.

Sizlar ana shunday beqiyos imkoniyatlardan oqilona foydalanib, yoshlik faslining oltinga teng har bir daqiqasini qadrlab, kelgusida Vatanimiz mustaqilligini, el-yurtimiz manfaatlarini barcha sohalarida dadil himoya qiladigan yetuk kadrlar, ongli va olijanob insonlar bo'lib, xalqimizga sidqidildan xizmat qilassiz, deb ishonaman.

Shuni aslo unutmang, odamzot hayotda munosib o'rin topishi, el-yurtning hurmati va e'tiboriga sazovor bo'lishi uchun milliy va umuminsoniy qadriyatlarini egallab, doimo oldinga intilib yashashi, izlanish va o'rganishdan aslo to'xtamasligi kerak.

Halol va mashaqqatli mehnat, ilmga, kasbga, ota-ona va oilaga sadoqat, hech shubhasiz, insonni yuksaltiradi, uning hayotini fayzli va charog'on etadi.

Ayniqsa, sizlar kabi navqiron, azm-u shijoatli yoshlarimizga shiddatli zamondan ibrat olib, har kuni bir natijaga erishib, irodangizni sinovlarda toblab, faqat va faqat oldinga qarab borish yarashadi.

Aminman, sizlarning yangi g'oya va tashabbuslaringiz, turli sohalaridagi yutuqlaringiz Yangi O'zbekistonni yanada qudratli etadigan moddiy va ma'naviy asoslarni barpo etishga beqiyos hissa bo'lib qo'shiladi.

Sizlardek o'z kuchiga ishongan, qat'iyatli yoshlardan qarddon maktabingiz, aziz ustozlaringiz va ota-onalaringiz, butun xalqimiz faqat ezgu ishlar va yorqin natijalar kutadi.

Ana shunday yuksak ishonchga doimo munosib bo'ling! Intilish, izlanish va yangilik yaratishdan aslo charchamang! Mustaqil hayot sari ilk qadamlaringiz qutlug' bo'lsin, aziz o'g'il-qizlarim!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Samarqand shahrida Samarqand – Fuszyan iqtisodiy va savdo hamkorlik hamda "Musaffo Fuszyan" madaniy, turizm forumi bo'lib o'tdi.
Unda Samarqand viloyati va Xitoy Xalq Respublikasi Fuszyan provinsiyasi rahbariyati, iqtisodiyot, savdo, turizm, madaniyat va madaniy meros sohalari mas'ullari, tadbirkorlar ishtirok etdi.

Forum ochilishida viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboev, Turizm qo'mitasi raisi o'rinbosari Sardor Niyozov Xitoy Xalq Respublikasi Fuszyan provinsiyasi gubernatori Chjao Lun keyingi yillarda rivojlanib borayotgan O'zbekiston – Xitoy mintaqalari hamkorligi, jumladan, sanoat, qishloq xo'jaligi, madaniyat va turizm sohalarida amalga oshirilayotgan qo'shma loyihalarni, investitsiyaviy dasturlar haqida so'z yuritdilar.

– Samarqand Buyuk ipak yo'lining chorrahasida joylashgan bo'lib, uch ming yillik tarixga ega, - dedi A.Boboev. - Ko'hna kent nafaqat madaniy va turizm salohiyatiga ega, balki savdo-iqtisodiy hamda sanoat jihatidan ham har tomonlama strategik hudud. Xitoy mintaqalari bilan o'rnatilgan savdo-iqtisodiy aloqalar natijasida oxirgi uch yilda tovar aylanmasi uch baravarga oshdi, ya'ni bu ko'rsatkich o'tgan yil yakuni bilan 554,4 million AQSh dollarini tashkil etdi. Xitoy tomonidan Samarqandga kiritilgan investitsiyalar esa to'rt baravarga oshib, 354 million dollarni tashkil qildi. Hozirgi kunda viloyatimizda 140 dan ortiq Xitoy kompaniyalari faoliyat yuritmoqda. Biz ushbu kompaniyalar sonini oshirish va yangi sarmoyalarni jalb qilishni maqsad qilganmiz. Jumladan, Fuszyan provinsiyasi mashinasozlik va uning ehtiyot qismlarini ishlab chiqarishda yetakli ekanligini hisobga olib, Samarqandda avtomobil ehtiyot qismlari ishlab chiqarish bo'yicha qo'shma loyiha amalga oshirishni taklif qilamiz.

Fuszyan provinsiyasi gubernatori ushbu yo'nalishlarda istiqbolli va manfaatli loyi-

Samarqand-Fuszyan: Hamkorlik istiqbollari ko'rib chiqildi



halarni qo'llab-quvvatlashga tayyorligini ma'lum qildi.

Tadbir davomida ikki hududning turizm, madaniyat, transport, qishloq xo'jaligi, investitsiyaviy, ishlab chiqarish va sanoat sohalaridagi salohiyati namoyish etildi. B2B va G2B uchrashuvlar o'tkazilib, hamkorlikni mustahkamlash va yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha qator kelishuv hamda memorandumlar imzolandi.

Mehmonlar Samarqandning diqqatga sazovor joylarini tomosha qilib, "Ipak yo'li" xalqaro turizm markazi hamda "Boqiy shahar" majmuasida yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Viloyat hokimining o'rinbosari Rustam Qobilov Samarqand va Fuszyan provinsi-

yasi o'rtasida turizm va madaniy aloqalarni mustahkamlash maqsadida madaniy meros obyektlarini saqlash, muhofaza qilish, qayta tiklash hamda yodgorliklardan foydalanish bo'yicha hamkorlikni taklif qildi.

– Bu sohada kadrlar tayyorlash, mutaxassislar bilan tajriba almashish, UNESCOning umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan obyektlarni restavratsiya qilish va asrab-avaylash, uzoq muddatli, barqaror hamkorlik munosabatlarini o'rnatishga tayyormiz va bu tashabbusni qo'llab-quvvatlaymiz, - dedi Fuszyan provinsiyasi gubernatori Chjao Lun. Uchrashuv yakunida mazkur yo'nalishda hamkorlik bo'yicha bitim imzolandi.

F.RO'ZIBOYEV.

Qurilish ishlari xalq bilan bamasaqlat amalga oshiriladi

Viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi A.Boboev viloyatda olib borilayotgan qurilish, obodonchilik va bунёдкорлик ishlari haqida ma'lumot bериш maqsadida ўtkazilgan matbuot anjumaniда бу fikrni qayta-qayta ta'kidladi.



– Bугун mamlakatimizning barcha hududlarida b'ulgani singari viloyatimizda ham keng k'ulamli qurilish, bунёдкорлик ishlari amalga oshirilmoqda, hududlar obod qilinaypti, - dedi A.Boboev. – Bундан хабардорсизлар, bevosита гувоҳ бўлиб турибсизлар. Лекин бarcha юртдошларимиз ҳам бу ҳақда етарли маълумотга эга бўлмаслиги мумкин, шунинг учун ижтимоий тармоқларда, ўзаро суҳбатларда турли хил фикрлар ҳам билдирилади. Бугун сизлар билан юзма-юз гаплашиб, айрим йирик лойиҳалар ҳақида маълумот беришни, таклифларингизни эшитишни, қизиқтираётган саволларингизга жавоб беришни лозим топдик.

Вилоят раҳбари дастлаб йирик лойиҳалардан бири – "Ширин" ишбилармонлик маркази ҳақида маълумот берди. Зарафшон дарёси бўйида 665 гектар майдонни эгаллаган мазкур лойиҳа тураржойлар, маъмурий ва бизнес марказлари, таълим ва тиббиёт муассасалари, кўнгилочар масканлар, шунингдек, замонавий транс-

порт ва муҳандислик коммуникацияларини ўз ичига олади. Шаҳарчани барпо этиш 4 та bosқичга бўлинган бўлиб, биринчи bosқичда дарё устида кўприк қурилгач, унинг икки томонидаги 100 гектар ер майдонида қурилуш ишлари амалга оширилади. Кейин навбатдаги bosқичларда иш олиб борилади. Аҳоли учун ижтимоий инфратузилма тўлиқ яратилади, яъни мактаб, болалар bogчаси, поликлиника, маҳалла бинолари, участка нозирли пунктлари қурилади.

Шундан сўнг viloyat hokimi Oқдар тумани Даҳбед шаҳарчасида жойлашган 4,7 гектар майдондаги Маҳдуми Аъзам зиёратгоҳи, Самарқанд шаҳридаги 2,2 гектар ҳудудда реставрация ва реконструкция ишлари олиб борилётган Имом Мотуридий мажмуаси ҳақида маълумот берди.

– Давлатимиз раҳбари ташаббуси билан Имом Мотуридий мажмуасини кенгайтириш ва обод қилиш жараёнида уй-жойи кўчирилаётган ёки бир қисми олиб қўйилаётган ҳар бир оила рози қилинган

ҳолда, улар учун турар жой, компенсация маблағи берилиб, кейин бу иш амалга оширилмоқда, - деди viloyat раҳбари. – Ҳеч кимнинг хоҳишига қарши иш қилинаётган эмас. Бундан ташқари, Ўзбекистон кўчасидаги харбий госпитал ўрнида аҳоли учун дам олиш маскани, истироҳат bogи ташкил этамиз. 5,4 гектар ҳудудда кўп йиллик манзарали дарaxтлар мавжуд ва лойиҳага кўра, улар тўлиқ сақлаб қолинади, bogнинг асосий қисмини яшил майдон ташкил этади. Ҳудуддаги маданий мерос объекти сифатида рўйхатга олинган биноларга зарар етказилмаган ҳолда улардан музей, кутубхона, креатив тўғрақлар сифатида фойдаланамиз. Bog ҳудудида павилионлар, ёпиқ ва очиқ аттракционлар, нуронийлар маскани, спорт ва соғломлаштириш майдончалари ташкил этилади. Қорасув массивидаги "Янги Ўзбекистон" bogидаги ишларни ҳам давом эттириб, бу маскани шу ҳудудда яшовчи аҳоли хордиқ чиқарадиган кўркам истироҳат bogига айлантирамиз.

Вилоят етакчиси Самарқанд шаҳридаги темирўл орти қисмида 3 мингга яқин маънан эскирган уй-жой ўрнида реновация лойиҳаси асосида 100 минг аҳоли учун мўлжалланган кўп хонадонли уй-жойлар массиви қурилиши, Самарқанд шаҳридан Ургут туманига тортилаётган темирўл тармоғи ҳақида ҳам маълумот берди.

Matбуот анжуманида viloyatда ижтимоий соҳа объекти, йўл ва коммуникация тармоқлари қурилиши, яшил bogлар ташкил этиш масалаларига ҳам эътибор қаратилди. Оммавий ахборот воситалари вакиллари ва ижтимоий тармоқлар фаолларининг мавзу юзасидан саволларига батафсил жавоб берилди, таклифлар эшитилди.

– Самарқандни янада обод қилиш, туризмни иқтисодиётнинг асосий драйверларидан бирига айлантириш ва аҳоли учун ҳар томонлама муносиб турмуш шaroити яратиш борасида кўп режаларимиз бор, - деди тadbир якунида A.Бобоев. – Уларнинг айримлари ҳақида бугун маълумот бердик. Шу билан бирга бугун сизларнинг савол, таклиф ва мулоҳазаларингизни эшитиб, ўзим ҳам кўп маълумотларга эга бўлдим. Шунинг учун бундай учрашувларимизни мунтазам ўтказиб борамиз ва йирик лойиҳаларни амалга оширишда сизларнинг, умуман, халқимизнинг фикри биз учун жуда муҳим.

Ҳ.ҲАҚАНОВ.

Sayyor qabulda 344 ta murojaat tinglandi

Viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi A.Boboyev kecha Jomboy tumanida navbatdagi sayyor qabulini o'tkazdi.

Qabulda ushbu tuman aholisi bilan birga viloyatimizning boshqa hududlaridan kelgan fuqarolar turli masalalar yuzasidan murojaat qildi.

Viloyat hokimi hamda tuman va shaharlar hokimlari, mutasaddi idoralari rahbarlari har murojaatchini diqqat bilan tinglab, ular ko'targan muammo va masalalar yuzasidan chora-tadbirlar belgiladi.

Qabul davomida 344 ta murojaat qayd etildi va ularning yechimiga mas'ullar belgilandi.



Ta'limni yuksaltirish yo'lida muhim qadam

15-may kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida maktab ta'limi tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirish hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan videoselektorda bildirilgan fikrlar meni deputat sifatida xursand qildi. Chunki yig'ilishda ta'limni yangi bosqichga ko'tarish, bu boradagi dolzarb masalalar, davr talabiga mos kadrlarni tanlash, o'qitish samaradorligini oshirish, yangi darslik va qo'llanmalar yaratish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbari yig'ilishda bilim, teran fikrli, vatanparvar yoshlarni tarbiyalash uchun yurtimizda barcha sharoitlar yaratilayotgani, keyingi 7 yilda maktabgacha va maktab ta'limi uchun yo'naltirilgan mablag' 7 karra oshirilib, bu yil 60 trillion so'mga yetganini qayd etdi.

Ta'lim dasturlari eng ilg'or mamlakatlar tajribasiga moslashtirilayotgani, darsliklar yangilanayotgani, maktablarga zamonaviy jihozlar olib berilayotgani, endi muallimlar yangi metodikalarni o'zlashtirib, bolalarga yaxshi bilim berishi kerakligiga urg'u berdi.

Xullas, sohadagi har bir yo'nalish tahlil qilinib, ustuvor vazifalar belgilab berildi. Maktab ta'limini yangi bosqichga ko'taradigan qator tashabbuslar ilg'ari surildi. Avvalo, pedagoglarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimiga e'tibor qaratildi. Endi barcha pedagogika oliygohlari faoliyati tubdan o'zgartiriladi.

Davlatimiz rahbari yoshlarni nufuzli xorijiy universitetlarda o'qitish masalasiga alohida to'xtaldi. Farzandlarimiz juda iqtidorli ekanini, faqat ularni to'g'ri yo'naltirib, maqsadli tayyorlash zarurligini bildirdi. Shu maqsadda "Prezident iqtidorli farzandlari milliy dasturi" boshlanishi, Al-Beruniy nomidagi xalqaro maktab tashkil etilishi va unga 8-sinf bitiruvchilaridan 60 nafari saralab olinib, reytingi yuqori oliygohlarga maqsadli tayyorlanishi ma'lum qilindi.

Bundan tashqari, Prezident va ixtisoslashgan maktablardan 208 nafar maslahatchining umumta'lim maktablariga biriktirilishi, bu maslahatchilar maktablardan har yili eng salohiyatli 3 ming o'quvchini seleksiya qilib, AQShning Garvard, Yel, Kolumbiya, Kornel kabi "Pechak ligasi" oliygohlari-ga tayyorlash tizimida erishiladigan muvaffaqiyatlar salmog'ini oshirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Hech kimga sir emas, bugun bolalarni zararli axborotlardan himoya qilish barchamizni o'ylantirayotgan dolzarb masala. Yig'ilishda davlatimiz rahbari ayni masalaga ham alohida e'tibor qaratib, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzurida Bolalar kontentini rivojlantirish markazi tashkil qilinishini bildirdi. Mazkur markaz zimmasiga mahalliy ijodkorlarga milliy kontentlar yaratish bo'yicha buyurtma berish, sohada kadrlar tayyorlashni tashkil qilish vazifalari yuklatildi.

Akbar AXTAMOV,
xalq deputatlari viloyat
Kengashi deputati,
"Milliy tiklanish" DP
viloyat kengashi raisi.



Biologiya, ekologiya va qishloq xo'jaligi sohasida qanday muammolar bor?

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida shu mavzudagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi bo'lib o'tdi.

Unda universitet rektori X.Yunusov, xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati F.Toshev, O'zbekiston Milliy universiteti professori L.G'afurova, Qoraqalpovq tibbiy fanlar ilmiy-tadqiqot instituti direktori S.Mambetullayeva va boshqalar mavzu yuzasidan fikrlarini bildirdi.

- Bugun ko'tarilgan mavzu juda dolzarb, - deydi ekolog-ekspert T.Hoshimov. - Buning yechimini ta'minlash uchun ilm-fan, innovatsiyalar va amaliyot o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, bu borada ilmiy ish qilayotgan yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash kerak. Shuningdek, axborot vositalari orqali ekologik muammolarni keng yoritish, jamoatchilik e'tiborini bu masalalarga qaratish zarur.

Tadbir davomida ishtirokchilar o'zlarining ilmiy maqolalari, tadqiqot natijalari bilan chiqish qildi. Shuningdek, yosh olimlar uchun maxsus seksiyalar tashkil etilib, ularga o'z iqtidorlarini namoyon etish imkoniyati berildi.

Konferensiya yakunida ishtirokchilarga sertifikatlar topshirildi va eng yaxshi ilmiy ishlanmalar e'tirof etildi.

Marvaridbonu JUMAYEVA.

Tomorqaning 4 sotix maydonida atirgul ko'chatlarini yetishtirib, bir mavsumda 50 million so'm daromad topsa bo'ladimi? Bo'lar ekan. Buni Kattaqo'rg'on tumani Oyjon mahallasida yashovchi bobodehqonlar isbotlagan. Bugungi kunda bobolarning ishini farzand va nabiralar, asosiysi, kelinlar davom ettiryapti.

Gulchilik – kam xarajat, ko'p daromad



- Bu xonadonga kelin bo'lib tushganimda qaynotam va qaynonam tomorqada, asosan, atirgul ko'chatlarini ko'paytirish bilan shug'ullanardi, - deydi Muattar Tolliyeva. - Bugun ular keksayib qoldi. Ishini o'zim davom ettiryapman. Farzandlarim tarbiyasi, ro'zg'or ishlaridan ortib, shu tomorqada ishlayman. Ko'chatlarni ko'paytirish ko'p mehnat talab qilmaydi. Qalamchalar yerga qadaladi, 8-10 kunda bir sug'oriladi. Vaqti-vaqti bilan chopiq qilinadi. Daromadi esa yaxshi ekan. Masalan, 4 sotix yerdagi 6 ming tup ko'chat yetishtirib, donasini 6 ming so'mdan 10 ming so'mgacha sotib, bu 50 million so'm daromad degani. Shuningdek, 2 sotix yerdagi lola yetishtiryapman. Uning ham piyoz, ham guli sotilib, ro'zg'orga qo'shimcha yordam bo'lyapti.

Muattar Tolliyeva kabi tomorqada mehnat qiladigan o'yjonlik yosh kelinlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Mahallada 553 ta xonadon bor. Ularga tegishli 121 gektar tomorqa maydoni bo'lib, har bir qarich yerdan unumli foydalaniladi. - 100 dan ortiq xonadon egalari tomorqasida issiqxona barpo etgan, - deydi mahalla raisi Shokir Odilov. - Ularda asosan pomidor va bodring yetishtiriladi. Shuningdek,

tomorqalarning aksariyat qismida to'qsonbosti ekinlar, ismaloq, piyoz va sarimsoqpiyoz kabi mahsulotlar parvarishlanadi. Bugungi kunda 50 dan ortiq tomorqa egalari atirgul ko'chatlarini ko'paytirish bilan shug'ullanayapti. Bunga xarajat kam sarflanar ekan, daromadi esa mo'maygina. Bu ishni mahallamizda Jamol bobo Orolov boshlab berdi. Bugungi kunda ko'chatchilikni uning farzandlari, qo'ni-qo'shnilari ham o'rganib, mahallamizni drayveriga aylantirmoqda. Shuningdek, aholining aksariyati tomorqasining bir chekkasida asalari boqadi. Bu ham ro'zg'orga qo'shimcha daromad.

Mahallada atirgulning 10 ga yaqin turidan ko'chatlar yetishtiriladi ekan. Xaridorlar ham talaygina. Ko'chatlar na-faqt Kattaqo'rg'on tumani bozorlariga chiqariladi, balki ularni qo'shni tomlariga, qolaversa, paxtachilik va qo'shrabotlik mijozlar xarid qilishmoqda.

To'liq SIDDIQOV,
Husan ELTOYEV (surat).



Marvaridbonu JUMAYEVA.

Inson salomatligi kafolatlanishi kerak



ni mustaqil tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ular qatoriga xususiy shifoxona mutaxassislari ham kiradi. Davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordam paketi tasdiqlanishi va tibbiy xizmatlar, dori vositalari to'liq davlat budjeti hisobidan qoplanishi qayd etildi.

Yig'ilishda shuningdek, Ishtixon tumani misolida mahalla va oilaviy shifokor punktlari, oilaviy poliklinikalar faoliyati maqbullashtirilib, 12 ming-tadan ko'p oilaga xizmat qiladigan 7 ta poliklinika va va 27 ta kichik po-

liklinika qayta tashkil etilishi aytili.

Ta'kidlandiki, Ishtixonondagi poliklinikaga va mahallalarga viloyatdagi kardiologiya, endokrinologiya va ona-bola markazlari, markaziy shifoxona vrachlari biriktiriladi. Ular mahallalarda yurib, aholini to'liq diagnostikadan o'tkazadi. Biriktirilgan oilaviy shifokorlar-ga kasalliklarni erta aniqlash va davolashni joyida o'rgatib, davolash va diagnostika

bo'yicha yangicha yondashuvlarning poliklinikada joriy qilinishi va Samarqand davlat tibbiyot universiteti professor-o'qituvchilari, magistratura bitiruvchilari ilmiy ishlarini shu yerga kelib yozishi belgilab qo'yildi.

Videoselektor shaklidagi yig'inda bundan tashqari sohadagi ta'lim sifatini oshirishga ham alohida e'tibor qaratilib, galdagi vazifalar sifatida tibbiyot oliygohlari va texnikum bitiruvchilarining fanlarni va davolash usullarini o'zlashtirishi shaffof tizim asosida alohida baholanishi aytili. Shu maqsadda tibbiyot sohasini baholash milliy markazi tashkil etiladi.

Albatta, har bir masala, belgilangan vazifa bo'yicha mutasaddilar bor. Biroq bu birinchidan, aholida yangi-gacha kayfiyat, ertangi kunga umid uyg'otadi. Faollar, shu jumladan, biz, deputatlarga ham qayd etilganlar ijrosini izchil nazorat qilib borish mas'uliyatini yuklaydi.

Nargiza ABDULLAYEVA,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti davolash ishlari bo'yicha prorektori, ko'p tarmoqli klinika bosh vrachi, xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati.



Qilmish-qidirmish



saboq chiqarishlari uchun yetarli muddatga ozodligini cheklash bilan jazoland

Aslida kundalik kuzatiladigan holat - mashinalarning bir-biriga yo'l bermasligi voqealarning bosh sababi bo'lgan. Jabrlanuvchi "Vaz 2102" markali avtomobiliga avtobus yo'l bermaganini aytadi. Ayblanuvchi, ya'ni jamoat transporti haydovchisi esa "Jiguli" unga xalal berganini bildirgan.

Gap bu yerda harakat ishtirokchilaridan qay biri qoidani buzganligida emas, ayni o'sha "sen emas, men haqman", qabilidagi harakat ortidan kelib chiqqan ko'ngilsizlik haqida ketmoqda.

O'sha kuni avtobus haydovchisi bo'lgan A.A. ning odatiy ish kunlaridan biri edi. Yuqorida aytilgan voqealik ortidan "Jiguli" haydovchisi bilan dahanaki tortishuvdan "hovuri" bosilmay, unga to'xta ishorasini qiladi. Ayni shuni kutganmikan, yengil mashina haydovchisi ham yo'l chetida tormozlaydi...

SUD HUKMI

Ish yuzasidan 2024-yil 4-sentabrda jinoyat ishlari bo'yicha Samarqand shahar sudining hukmi o'qildi. Unda ota va uning ikki o'g'li Jinoyat kodeksining 105-moddasi, ya'ni qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazishda aybli, deb topildi.

Ushbu moddaning bir guruh shaxslar yoki uyushgan guruh a'zosi tomonidan yoxud shu guruh manfaatlarini ko'zlab, deb nomlanuvchi 2-qismi "i" bandi bilan jazo tayinlandi. Jumladan, avtobus haydovchisi bo'lgan otaga 3,5 yil, o'g'illardan biriga 4, ikkinchisiga 4,6 yil ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan.

NEGA BARIGA BIR XIL EMAS?

Voqea tafsilotlari, guvoh va jabrlanuvchilarning so'zlariga ko'ra, avtobus va mashina yo'l chetiga to'xtagach, undan tushgan haydovchilar yoqama-yoqa bo'lishgan.

Shu vaqtda avtobus haydovchisining salonda bo'lgan o'g'li kelib, jabrlanuvchining yuz-ko'ziga musht tushirib qolgan.

Tasodifni qarangi, taksida ketayotgan ikkinchi o'g'li ayni voqeaning ustidan chiqib qolgan. Uning temir jism bilan "Jiguli" haydovchisining yuziga tushirgan zarbasi janjalga xotima yasagan.

Albatta, jabrlanuvchiga birinchi tibbiy yordam ko'rsatilgan. Zudlik bilan

tez yordam chaqirilgan. Ayblanuvchilaridan biri, aniqlik avtobus haydovchisining so'zlariga ko'ra, jabrlanuvchining sog'lig'ini tiklash uchun barcha ishlarni amalga oshirgan, ya'ni shifoxona, dori-darmon va oziq-ovqat uchun ketgan xarajatlarni to'lagan.

XOTIMA

Bir qarashda hammasi aniq: avtobus haydovchisi jahliga erk berishi ortidan 2 nafar farzandi bilan bir guruh bo'lib, jamiyatda o'rnatilgan yurish-turish qoidalarini qasddan mensimasdan, jamoat joyi va odamlar gavjum to'plan-gan "Beruniy" bekati oldida qo'l va oyoqlari hamda D.Sh qo'lida bo'lgan sovuq qurol toifasiga kiruvchi temir jism bilan bosh, yuz va tanasining turli sohalari-ga bir necha marotaba urib, unga o'rtacha og'irlikdagi tan jarohati yetkazishgan.

Oqibatda jabrlanuvchining shifoxona xarajatlarini to'lashiga to'g'ri kelgan. To'rt-besh oy huquq-tartibot idoralari-ga qatnaganini aytmaymizmi?

Bir necha lahzalik jahli otiga minish ortidan kelib chiqqan mashmasha shu bilan yakunlanmadi. Jabrlanuvchi aybdorlarga berilgan jazodan norozi bo'lib, jinoyat ishlari bo'yicha viloyat sudlov hay'ati kassatsiya instansiyasiga ariza bergan.

To'g'ri, kassatsiya instansiyasi ishning ayrim jihatlarini e'tibordan chetda qoldirilgan, deb topdi. Shu sabab ayblanuvchilarga nisbatan chiqarilgan hukmni o'zgartirdi:

Ular har biriga 2 yil muddatga ozodlikni cheklash jazosi tayinlandi. Yashash joyidan - Samarqand shahar, "K" mahalla fuqarolar yig'ini "N9"-uydan kechqurun soat 22:00 dan ertalab soat 06:00 ga qadar chiqish cheklandi. Bundan tashqari, nazorat qiluvchi organing rozilgisiz yashash joyini o'zgartirmaslik, viloyat hududini tark etmaslikdan iborat qo'shimcha cheklashlar yuklatildi...

Y.GADOYEV tayyorladi.

Тарихий ҳужжатларга кўра, мамлакатимиз тарихидаги илк спектакль - "Падаркуш" Самарқандда намойиш этилган. 1914 йилнинг 15 январиди, айна дамда Бехбудий ўй-музейи сифатида фойдаланилаётган бинода қўйилган театрга 400 киши ташриф буюради, манбаларда айтилишича, ташқарида яна 300 киши спектаклни кўриш илнини келиб, томошагоҳга сиғмай қолади.

Ҳа, Бехбудий биринчи ўзбек драматининг муаллифи бўлибгина қолмай, уни саҳналаштириш жараҳида режиссёр сифатида ҳам иштирок этган.

"Маърифат учун биргина мактаб кифоя қилмайди. Замон ва дунё воқеалари билан танишиб бормоқ керак. Миллат ва Ватаннинг аҳволдан, кундалик ҳаётдан огоҳ бўлмоқ лозим. Миллат учун ойна керак, токи ундан ўз қабоҳатини ҳам, малоҳатини ҳам кўра олинсин".

Мана шу эҳтиёж ва зарурат Бехбудийни театр ва матбуотга бошлади. "Падаркуш" драматини шу тариқа майдонга келди. Ушбу воқеани ўша пайтдаги миллий матбуот тарихий кун сифатида эътироф этади.

Айтиш керакки, Самарқанд вилоят мусикали драма театрида ҳам мана шундай тарихий кун сифатида эътироф этиладиган воқеали содир бўлди. Узоқ йиллар миллат оидинлари - жа-

Саҳнада - "Маҳмудхўжа Бехбудий"

Премьера

дидлар ҳаёти, фаолияти олимлар томонидан ўрганилган бўлса-да, ammo сиймоси саҳналарда гавдалантирилмаган эди.

Кейинги йилларда жадидчилик ҳаракати алоҳида эътибор қаратилиши, уларнинг миллат уйғоқлиғи дунёвий илм эгаллаши, мураккаб давр бўлишига қарамай, янги мактаблар ташкил этиб, газета-журналларга асос солиши бот-бот тилга олинмоқда. "Жадид" газетасининг ташкил этилиши, иқтидорли ўқувчилар учун очилган мактабларнинг жадид болаларимиз номи билан аталиши, улар ижодининг чуқур ўрганилиши шу ишларнинг узвий бир қисмидир. Утган йили "Туркистон жадидлик ҳаракатининг асосчиси, атоқли адиб ва жамоат арбоби, ношир ва педагог Маҳмудхўжа Бехбудий таваллудининг 150 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида"ги Президент қарори эълон қилиниши эса бу эътиборнинг амалдаги яна бир ифодаси бўлди.

Вилоят мусикали драма театрида Ўзбекистонда хизмат кўрсатган журналист Фармон То-

шев қаламига мансуб "Маҳмудхўжа Бехбудий" драматининг премьераси бўлиб ўтди. Режиссёр Фарход Бойназаров, саҳналаштирувчи расом Баҳром Сафоев ва бир гуруҳ театр ижодкорларининг заҳматли меҳнати асосида юзага келган мазкур спектаклни жамоатчилик қизгин кўтиб олди. Спектаклда бош ролни ижро этган маҳоратли актёр Лазиз Маматқулов, шу театрнинг забардаст актёрлари Бахтиёр Раҳимов, Абдулазиз Тоштемиров, Хуршид Баратов ва бошқа ижодкорларнинг хиссаси катта бўлди.

Саҳна спектакль қаҳрамонининг ўқ овозларидан ёшлигидаги кўрқув билан бугун, ўз мактабу дарсликларини, газеталарини чоп этган бир миллат зиёлиси сифатида кўрқувлари баёнидан бошланади. Ўша тахликали, шўролар мамлакатни босқинчилик, тарғибот, миллат оидинларини қатағон қилиш каби минглаб усуллар билан эгаллаб олаётган бир пайтда "Самарқанд" газетаси, "Ойна" журнаliga асос солиб, одамларни илмга, ўзлигини йўқотмаслик, мамлакатни ёт қўлларга



бериб қўймасликка даъват этган, болалар учун дарсликлар ёзган миллат фидойисининг ҳар қадами ўлчовли эди.

Спектакль давомида мана шу жараёнлар маҳорат билан ижро этилган, актёрлар ўша давр миллатпарварлари, Бехбудий замондошлари ва ҳамфикрлари бўлмиш Ҳожи Муин, Шақурий, Саидризо Ализода, Абдурауф Фитрат, Мунавварқори Абдурашидонов қиёфаларини ҳам маҳорат или акс эттирган. Бехбудийнинг йирик йиғинларда чиқиб, думага сайланганлар орасида маҳаллий вакилларнинг деярли йўқлигини ташвиш билан айтиши бугун учун оддий ҳолдир, ammo миллат манфаати ифода этилган ҳар бир сўз таъкиб этилаётган даврда бу улкан қаҳрамонлик эди!

Спектакль давомида махсус эффектлар ёрдамида ўйинлар, замонавий қурилмалар остидаги монолоғлар ижро этилиши асарнинг кўришилигини янада оширган. Айниқса, спектакль якунида Бехбудийнинг сафар аввалида оила аъзола-

ри билан хайрлашиш саҳнаси жуда таъсирли чиққан. Фарзанду оиласи билан кўзбойлогич ўйини ўйнаб, қаҳрамоннинг йўқлиб қолишида қатор рамзий маънолар бор эди. Чунки сўнгги сафаридан қайтмаган Бехбудий бу билан энди бугунга менинг йўқлигимга кўникинлар, деганимикан? Ёки миллатга қарата энди бугунга кўп нарсаларга кўз юмиб ўтишга мажбурсизлар, акс холда омонлик йўқ, деганимикан?

Хуллас, бу саволларга спектаклни кўрган томошабин ўзи жавоб топиши тайин. Дарвоқе, премьерда вилоят ҳокимлиги, давлат ва жамоат ташкилотлари вакиллари иштирок этди.

Спектаклни томоша қиларканман, 1914 йилда Самарқандда руй берган воқеа, 300 нафарга қин самарқандликлар театрга ташриф буюриб, чипта ва жой тополмагани ёдимга тушди. Бугун театрларимиз катта майдонни эгаллаган, ammo миллат фидойиси сиймосини кўриш учун яна шу ҳол такрорланармикан, нима деб ўйлайсиз?

Гулрух МҲМИНОВА.



REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

AKSIYADORLAR DIQQATIGA!

"Jomboy don mahsulotlari" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdagi umumiy yig'ilishi 2025-yil 14-iyun kuni (haftaning shanba kuni) soat 11:00 da Samarqand viloyati Jomboy tumani, Jomboy shahri, Toshkent-Samarqand ko'chasi, 68-uy manzilida joylashgan "Jomboy don mahsulotlari" aksiyadorlik jamiyati ma'muriy binosi majlislar zalida o'tkaziladi.

Jamiyat aksiyadorlarining navbatdagi umumiy yig'ilishi kun tartibida quyidagi masalalar muhokama qilinadi: Umumiy yig'ilish kun tartibi:

1. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining ishchi prezidiumi va sanoq komissiyasiga nomzodlarni tasdiqlash.

2. Jamiyat kuzatuv kengashining 2024-moliyaviy yil yakunlari bo'yicha hisobotini tasdiqlash.

3. Jamiyatning 2024-yil yakunlari bo'yicha yillik hisoboti va 2024-yilning asosiy natijalari hamda 2025-yilda amalga oshiriladigan dolzarb vazifalar to'g'risida boshqaruv raisining hisobotini tasdiqlash.

4. Jamiyatning 2024-moliyaviy yil yakunlari bo'yicha buxgalteriya balans va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti hamda foyda va zararlarni ko'rib chiqish va tasdiqlash.

5. Jamiyatning 2024-yil moliyaviy yil yakunlari bo'yicha tashqi auditorlik tashkiloti "ZAMIN OIL-AUDIT" MCHJning xulosasini (BHXS, MHMS) ko'rib chiqish va tasdiqlash.

6. 2024-yil yakuni bo'yicha jamiyat zarar bilan chiqqanligi sabab ustav fondidagi imtiyozli aksiyalarga hisoblanadigan dividend miqdorini va dividend to'lash muddatini belgilash.

7. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolariga nomzodlarni tasdiqlash.

8. Jamiyat ustaviga va ichki nizomlariga qo'shimchalar va o'zgarishlar kiritilganligi sababli jamiyatning yangi tahriridagi ustav va ichki nizomlarini ko'rib chiqish va tasdiqlash.

9. Jamiyatning ijroiya organi rahbari va a'zolari bilan tuzilgan mehnat shartnomasining muddatini uzaytirish bo'yicha qaror qabul qilish.

10. Jamiyatda 2025-yil yakuni bo'yicha auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditor xizmatini ko'rsatuvchi tashkilotlar taklifini

ko'rib chiqish hamda ularga to'lanadigan xizmat haqi miqdorini belgilash.

11. Jamiyatning yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.

12. Jamiyatning 2025-yil uchun mo'ljallangan biznes rejasini tasdiqlash.

Jamiyat aksiyadorlarining navbatdagi umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning ro'yxatini tuzish hamda umumiy yig'ilish o'tkazilishi haqida xabarnoma olish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reestrini shakllantirish sanasi 2025-yil 22-may kuni va umumiy yig'ilishda qatnashish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reestrini shakllantirish sanasi 2025-yil 10-iyun kuniga belgilangan.

- aksiyadorlarni ro'yxatga olish 2025-yil 14-iyun kuni soat 10-00 dan 11-00 ga qadar davom etadi.

- yig'ilishga aksiyadorlar shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari va ularning vakillari amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlangan ishonchnomalar bilan kelishlari so'raladi.

Murojaat uchun telefon: +99897-614-75-73.

Jamiyatning elektron pochta manzili: jomboydon_aj@mail.ru

Hurmatli aksiyadorlar! Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi axborot va boshqa ma'lumotlarni jamiyat aksiyadorlariga sifatli va tezkor ravishda yetkazilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, elektron pochta orqali amalga oshirilishini inobatga olib, sizdan elektron pochta manzilingizni (Email.) taqdim etishingiz lozimligini ma'lum qilamiz.

JAMIYAT KUZATUV KENGASHI.

TANLOVDA QATNASHING!

SamDTU tibbiy pedagogika, oliy hamshirlik ishi va xalq tabobati fakulteti pedagogika-psixologiya kafedrasiga dotsent lavozimiga (1 o'rin) tanlov e'lon qilinadi.

Talabgorlar tanlovda qatnashish uchun quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari lozim:

1. Rektor nomiga ariza.
2. Xodimlarni hisobga olish bo'yicha so'rovnomasi.
3. Oliy ma'lumoti, ilmiy darajasi haqidagi diplomlari, ilmiy unvoni haqidagi attestatni nusxalari.
4. Tasdiqlangan ilmiy ishlari ro'yxati.
5. Malaka oshirganligi to'g'risidagi sertifikat.

Murojaat uchun manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 18-uy.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahmonov Sarvar Ne'matilloevich notarial idorasida marhum Azimov Davron Xamrakulovichga (2023-yil 6-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahmonov Sarvar Ne'matilloevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 60-uy.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasida marhum Chuliyev Zarip Rasulovichga (2024-yil 20-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk

TA'SISCHILAR DIQQATIGA!

Urgut tumanidagi "URGUT-SAXOVATI" mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischilarining umumiy hisobot yig'ilishi 2025-yil 5-iyun soat 10:00 da jamiyat ma'muriy binosida o'tkaziladi. Ushbu hisobot yig'ilishiga jamiyatning barcha ta'sischilari taklif etiladi.

Yig'ilish kun tartibiga quyidagi masalalar kiritiladi:

- jamiyatning 2024-yillik moliyaviy xo'jalik faoliyatini yakunlash yuzasidan jamiyat direktorining hisoboti;

- jamiyat bosh hisobchisining 2024-yil buxgalteriya, moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha hisoboti;

- 2025-yil uchun tuzilgan shtatlar jadvali va biznes rejasini hamda 2024-yil yakuni bo'yicha berilgan auditor tekshiruvining xulosasini tasdiqlash;

- 2024-yilda olingan sof foydani ta'sischilar o'rtasida taqsimlash, hisoblanagan dividend miqdori va to'lovini amalga oshirish tartibi to'g'risida.

Manzil: Urgut shahri Do'stlik mahallasi, Pochvon ko'chasi.

JAMIYAT MA'MURIYATI!

"ALPOMISH" OROMGOHI MAVSUMGA SHAY!

"ALPOMISH" oromgohi 7-14 yoshli bolalar uchun yozgi sog'lomlashtirish oromgohi bo'lib, Samarqand shahridan 20 kilometr uzoqlikda, tog'lar etagidagi ekologik toza hududda joylashgan.

Ko'p asrlik chinorlarga boy bo'lgan 2,8 gektar maydon ajoyib dam olish uchun qulay muhit yaratadi. Turarjoylar zarur qulayliklarga ega. 10-16 kishilik shinam xonalardan iborat. Ovqatlanish xonasida kuniga 5 mahal mazali taomlar taklif etiladi.

Hududda xavfsizlikni ta'minlash uchun videokuzatuv tizimlari o'rnatilgan hamda ichki ishlar, milliy gvardiya va favqulodda vaziyatlar boshqarmasi xodimlari tunukun bolalar xavfsizligi uchun navbatchilik qilishadi.

Har kuni tajribali yetakchilar va tarbiyachilar bolalar uchun turli xil mahorat darslari, ularning qiziqishlari bo'yicha ijodiy va sport tadbirlarini o'tkazadilar: aktyorlik, musiqa, xoreografiya, robototexnika, qo'l san'ati va boshqalar. Bolalar sport maydonchalarimizda tennis, voleybol, basketbol va futbol bilan shug'ullanishlari mumkin.



Dam oluvchilarning ixtiyorida konsertlar va spektakllar joylari, o'yin va sport maydonchalari, yozgi kinoteatr, kutubxona, basseyn va dam olish joylari mavjud. Har kuni oromgohda bolalar ishtirokida tanlovlar va ko'ngilochar shoulardan iborat maxsus dasturlar tayyorlanadi.

Sizni "ALPOMISH" oromgohida kutamiz!

Murojaat uchun telefonlar: +99895-225-04-05, +99890-224-87-78.

Manzilimiz: Samarqand tumani "Ohalik" MFY.

Oromgohga yo'llanmani

www.orumgohlar.uz saytidan olishingiz mumkin.

Yo'llanma narxi - 2 000 000 so'm.

JAMG'ARMA FAOLIYATI TUGATILMOQDA!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-oktabrdagi "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-347-sonli qarorining 17-bandida hamda Samarqand viloyati hokimining 2025-yil 20-maydagi 164-7-0-Q/25-sonli qarori bilan Samarqand viloyati hokimligi hudurida davlat muassasasi shaklida tashkil etilgan yangi ish o'rinlari tashkil etishni rag'batlantirish hududiy jamg'armasi yuridik shaxs maqomi qabul qilingan holda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tarkibiga o'tkazilishi belgilangan. Shu sababli hududiy jamg'arma tugatilishini ma'lum qilamiz.

Qo'shimcha ma'lumotlar uchun telefon: +99893-353-60-60. Elektron pochta: diimurodbek2772@gmail.com

uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Amir Temur ko'chasi, 48-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Normatov Murod To'ychiyevich notarial idorasida marhum Rahimov Hakimga (2024-yil 6-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Normatov Murod To'ychiyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Andijoni mahallasi, Tong Yog'dusi ko'chasi, 39-uy.

BEKOR QILINADI

Qo'shrabot tumanidagi "ABDIKOMIL OTA CHORBOG'I" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 309514603) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahridagi "Axmadxonov Xondamir Jamolxon o'g'li yakka tartibdagi tadbirkorining (JSHSHIR: 51903026180029) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

HOVLILAR SOTILADI!

Samarqand shahri Obi Rahmat ko'chasida joylashgan 3- va 30-uy-joylar sotiladi.

Telefon: +99888-894-52-16.

«Отамга ўхшагим келади»

Меҳнат фахрийси Баҳодир Абдуллаев сиймосига чизгилар

- Асли марғилонликмиз. Облоқул амаким ўша пайтда элга танилган Йўлдош Охунбобоевнинг қариндошига уйланган ва у кишининг назарига тушган. Йўлдош ота амаким туфайли оиламизга меҳр қўйган, бобом ва бувим вафот этгач, кичкина аммам, отам ва амакимни ўз оталиғига олган, уларни турли жойларда ишлатган. Самарқанд республика пойтахти бўлгач, мазкур давлат арбоби Олий совет раиси бўлган ва у Облоқул амаким, отам, Мукаррама аммамни ўзи билан олиб келган, уларни ўқитган. Отам ва амаким шаҳардан уйланган, биз шу тариқа самарқандлик бўлиб қолганмиз,- дейди Баҳодир Маматқулович.

Дарҳақиқат, тақдир сийлайдиган йиллар бўлмаган ўшанда. Иккинчи жаҳон уруши ва урушдан кейинги йилларда яшаш ниҳоятда қийин бўлган. Бунинг устига мутахассислар, муаллимлар етишмаган. Маматқул ака рус тилини яхши ўрганган, илми киши бўлган. Шу сабабли шаҳар атрофидаги икки-уч хўжаликка раис бўлган, ҳатто бир муддат вилоят ижроқўми раиси ўрин-босари вазифасини бажарган, кейин у кишини Тойлоқ қишлоқ советига раис этиб сайлашган. Маматқул раис Қўрғон-ча қишлоғида турмуш ўртоғи билан 9 нафар фарзандни камолга етказишган. Уларнинг бири Баҳодир ака эди.

- Йўлдош отадек кишининг тарбиясини олгани учун отам ниҳоятда қаттиққўл, шу билан бирга ниҳоятда меҳрибон киши эдилар. Одамларнинг у кишига ҳурматини кўриб, ҳавас қилганмиз, - ҳикоясини давом эттиради суҳбатдошим. - Оқилларга кўмак, мискинларга ёрдам берганида қалби қувониб кетарди. Жуда кўп, газета китоб ўқирди, бизларни ҳам ўқишга даъват этарди.

Ҳа, оқсоқолнинг фахрлиниши беҳиз эмас. Маматқул ака тўққиз фарзанднинг барчасини ўқитди, эл хизматида тайёрлади. Пировардида, улар ҳам ўз фарзандларига ана шундай тарбия бердилар. Опаси Сабоҳатхоннинг ўғли Муҳсинжон Ашуров эндиликда мамлакатнинг етакчи физик олими, академики. Талъат аканинг ўғиллари Камолидин ва Жамолидин Ўзбекистонда гиламчиликда бренд яратди олишди. Баҳодир ака тақдир тақозоси билан ҳарбий хизматдан сўнг узок йиллар Тожикистон Мудофаа вазирлигида масъул лавозимларда фаолият кўрсатди.

1995 йилда Ватанига қайтган, ўн йилдан сўнг Ўзбекистон фуқаролигини олди ва жамоат ишига астойдил киришиб кетди.

55 йиллик илм

Асрларга татигулик меросга эврилган

2025 йил 25 майда Самарқанд давлат университети биология факультети зоология кафедрасининг мудири, биология фанлари доктори, профессор Абдурашид Жабборов таваллудига 75 йил, илмий-педагогик ва жамоатчилик фаолиятига 55 йил тўлади.

Абдурашид Жабборов Самарқанд шаҳрида туғилиб ўсган. 1966 йилда шаҳардаги 10-ўрта мактабни аъло баҳоларга тугатиб, Самарқанд давлат университетининг биология факультетига ўқишга қабул қилинган. 1971 йилда биология факультетини биология-зоология мутахассислиги бўйича имтиёзли диплом билан тугатди ва умуртқаллар зоология кафедраси қошидаги зоология музейига лаборантлик вазифасига ишга қабул қилинди. 1972 йилда ҳарбий хизматни ўтаб қайтгандан сўнг СамДУ биология факультети генетика кафедрасида иш бошлади.

А.Жабборов 1980-1982 йилларда М.Ломоносов номидаги Москва давлат университети аспирантурасида ўқиб, биология фанлари номзоди илмий даражаси олиш учун диссертацияни муваффақиятли ҳимоя қилди. 1995 йил январдан бошлаб 2010 йил май ойигача А.Жабборов зоология кафедраси мудири лавозимида ишлади. Кафедра қошидаги Марказий Осиеда ягона бўлган зоология музейи фаолиятини янада ривожлантириш мақсадида олим томонидан тайёрланган ва тақдим этилган илмий лойиҳалар 1995 йилдан ҳозирги кунгача Ўзбекистон фан ва техника давлат қўмитасининг грантларига сазовор бўлди. Ушбу саъй-ҳаракатлар натижасида ҳозирги кунда зоология музейи янги қиёфага эга бўлиб, олий ўқув юртлири талабалари, академик лицей ва мактаб ўқувчиларининг зоология, экология ва табиатни муҳофаза қилиш фанларидан очик дарслар ўтиладиган ўқув, илмий ва маданий марказга айланди.

2016 йилда А.Жабборов Ўзбекистон Фанлар академияси ўсимлик ва ҳайвонот олами генетики институти қошидаги илмий кенгашда "Ўзбекистонда қушлар келтириб чиқарадиган биозарларнишлар ва уларнинг олдини олишда эко-тех-

нологик усуллари такомиллаштириш" мавзусида докторлик диссертациясини ҳимоя қилди.

2018 йилдан бошлаб профессор А.Жабборов Самарқанд давлат университети ҳузуридаги илмий даража-лар берувчи илмий кенгаш ва семинар аъзоси, шунингдек, мазкур илмий кенгаш қошидаги зоология фанидан имтиҳон комиссияси раиси сифатида фаолият олиб бормоқда.

Устоз ўнга яқин дарсликлар, 20 дан ортиқ ўқув-услубий қўлланма, 2 та электрон дарслик, шунингдек, бакалавр ва магистрантлар учун умумий ва ихтисослик фанларидан ўқув дастурлари, маъруза матнлари ва ўқув қўлланмалар, ўқув-услубий мажмуалар тайёрлади. Профессор А.Жабборов 3 та муаллифлик гувохномаси ва битта патент соҳибига эга бўлган, Чехия ФА "Editorial Board In the Peerian Journal" журналининг тахририят аъзоси.

2017 йилда зоология кафедраси мудири вазифасига сайланганда кафедра профессор-ўқитувчиларининг илмий салоҳияти 42,3 фоиз бўлган эди, 2024 йилда салоҳият 93,6 фоизни ташкил этди.

Устоз катта бир оиланинг меҳрибон сардори. Атрофда икки нафар ўғли, келинлари ва 5 нафар набираси парвона.

Олимни қўтлуғ 75 ёши ва илмий-педагогик фаолиятининг 55 йиллиги билан чин қалбдан табриклаймиз. Устозга мустақкам соғлиқ, оилавий бахт тилаймиз.

Семён ФУНДУКЧИЕВ,
СамДУ зоология кафедраси профессори.
Жасур ҚУДРАТОВ,
кафедра доценти,
Абдунаби МАМАШУКУРОВ,
биология фанлари бўйича фалсафа доктори.



бўлишга ҳаракат қиламан. Яширмайман, падали бузрукворимга ўхшаб, ҳаётда қийналган одамларга далда бўлиши шiori қилиб олганман. Бу эзгу ниятга ҳамкорлар кўллиги менга куч беради. Биласизми, озгина кўмагимиз туфайли мурувватдан ўзини тутган, соғлиғини тиклаб олган, ҳаётда ўз ўрнини топган кишилар қувончини кўрсам, кўнглим яшнайдди, ота-онам олдидаги қарзимни узаётгандек бўламан.

Баҳодир ака Ўзбекистон янги Конституцияда ўзини ижтимоий давлат деб эълон қилганини фахр билан айтиб, инсоннинг ижтимоий фаоллиги, эртанги кунга ишончи нечоғлик аҳамият касб этишини мисоллар билан гапириб берди. Меҳр ва мурувват ҳар кунда, ҳар соатда керак эканини таъкидлади.

Абдуллаев саксон ёшми қаршилади. Ўтган йиллар ташвишу сабоқлари улғайишимга ёрдам беряпти, дейди отахон. Зеро, яхши одамларга юртдошларининг фаровон турмуши, машаққатларни енгишдаги сабру иродаси, ўзаро ҳамкорлиги ўзгача қувват беради.

Зеро, бу оила ҳаёти ҳам ҳавас қилса арзигулик. Фидойи муаллима Шоира Қобулова билан фарзандларни жамиятга муносиб этиб камолга етказишди. Барчаси олий маълумотли мутахассислар. Ферузжон вилоят туризм бошқармасида, Лола, Санобар ва Нодира она касбини танлашган. Зарина - доришунос, Нодира ҳозирча уй бекаси.

Бағрикент инсон Баҳодир Абдуллаевнинг бундай қувватдан хали кўп йиллар баҳраманд бўлиб яшашига ишонамиз.

Фармон ТОШЕВ.



Мансур Тўрабек билан неча йиллардан бери мўмай даромад илинжида четда сарсон-саргардон. Эҳ-ҳе, қанақа ишларни бажаришмади, не-не азоб-ўқубатларни кўришмади? Аммо "Қаерни қилма орзу, бордир тошу тарозу", деганлари рост экан. Бири икки бўлмади. Пулни хазондай сугуриб оламиз, деган хаёллари пуч бўлиб чиқди.



Сабоқ

Мансур беҳуда ўтган умрини хаёлидан ўтказар экан, уйқуси қочди. "Узоқдаги дондан яқиндаги сомон яхши", дейишади. Қишлоққа қайтиб, бирор ишнинг бошдан тут-саммикан? Тўрабек икки йил олдин касал ортириб, қишлоққа қайтвудди. Соғайиб кетдимикан? Нима иш қиялпти экан..?

Мансур охириги марта уч йил олдин келиб кетганди. Юрагини юрт, оила, болалар соғинчи ўртади: "Бориб келмасам бўлмайдими!"

Мансур бу гал қишлоққа келгач, хол-аҳвол сўрай деб қадрдони Тўрабекни йўқлаб борди. Дўсти уйда экан, кучоқ очиб қутиб олди.

- Соғайиб кетдингми, жўра? - Мансур зимдан Тўрабекка разам солди. Кайфияти чоғ, кўзлари турмушдан маннунликдан чакнайди. Икки йил аввал ўпкаси шамоллаб, қишлоққа қайтган хаста йигитга асло ўхшамайдими.

- Раҳмат, жўра, ўзинг қалай, мусофирчиликда «ит ётиш мирза туриш» қилиб юрибсанми? - ҳазиллашди Тўрабек Мансурни кучиб. - Қани, ичкарига кирайлик, - Тўрабек меҳмонни уйига бошлади.

- Уҳ-ху, иш зўр-ку, иссиқхона курдингми?

- Ҳа, жўра, иссиқхона курдим, кириб кўрасанми, марҳамат!

Мансур киш оий бўлишига қарамай, фарқ пишган помидор, бодрингларни кўриб, анграйиб қолди: "Наҳотки Тўрабек шу ишнинг урдасидан чиққан бўлса?!"

- Эй, жўра ҳазина оёғимиз остида экан-ку, чет элларда қидириб, улоқиб юрган эканмиз. Давлатимизга раҳмат, ишлайман деган одамларга ҳамма шароит яратиб берилляпти. Кредит керакми, кўчат керакми, муҳайё. Маҳаллага муро-жаат қилгандим, кредит ажратишди,

иссиқхона қуришни маслаҳат беришди. Бола-чақа билан ишга киришдик. Ўтган йилиёқ илк даромаддан машина олдим. Бу йил насиб этса, келин тушириб ўғилнинг контрактига тўлаймиз. Хўш, ўзинг қалайсан, қишлоққа қайтиш ниятинг йўқми? - Ҳозирча бир қарорга келганим йўқ, қайтсам иш топанамни, йўқми? - Мансур хўрсинди.

- Топасан, жўра, топасан, мана, мен ёрдам бераман! Истасанг, ҳозир маҳаллага борамиз. Хоҳласанг, паррандачиликка, хоҳласанг, чорвачиликка, хоҳласанг, иссиқхонага кредит олиб беришади.

- Йўғ-э, ростданми? - Мансур ишонқарамай сўради.

- Рост! Кетдик-ми?

- Кетдик! - кўп йиллардан буён ўзга юртда косаси оқармаган Мансур хурсанд бўлиб, Тўрабекка эргашди.

Тоғаймурод ШОМУРОДОВ.

Yaxshilik

rag' batsiz qolmaydi

Ezgulik bu faqatgina muayyan amal emas, balki inson qalbidagi eng sof, eng nuri tuyg'ulardan biridir. Yaxshilik qilish uchun katta boylik yoki kuch kerak emas. Ba'zida samimiy bir tabassum, chin yurakdan aytilgan yaxshi so'z yoki kimgadir ko'rsatilgan kichik bir yordam butun bir insonning taqdirini o'zgartirishi mumkin. Shuning uchun ham ajdodlarimiz "Hech bir ezgulik mukofotsiz qolmaydi" degan dono fikrni avlodlarga ibrat sifatida qoldirgan.

Bugungi kunda zamonaviy hayot sur'atlari tezlashib borayotgan bir paytda ezgulik qilish, mehr-oqibat ko'rsatish kabi qadriyatlar yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki inson qanchalik texnika va ilmda yuksalmasin, uning qalbi faqatgina ezgulik orqali to'liq insoniylikka erishadi. Ezgu ishlar insoniyat tarixining eng qadimiy va eng qadrlangan fazilatlaridan biridir. Har qanday din, har qanday madaniyat, har qanday xalqda yaxshilik qilish, boshqalarga foyda yetkazish eng oliy qadriyat hisoblanadi. Chunki ezgulik nafaqat jamiyatni birlashtiradi, balki insonning o'zini ham ma'naviy jihatdan boyitadi, qalbini poklaydi, fikrini ravshan qiladi.

Hayotda har bir inson turli sinovlardan, holatlardan o'tadi. Ba'zida yomonlik qilishga imkon bo'lgan paytlarda ham ezgulikni tanlash - jaso-rat. Chunki yaxshilikni tanlagan kishi eng avvalo, o'zini, o'z qalбини yenggan bo'ladi.

Kimgadir yordam berish, bir muhtojga quvonch ulashish, yetimning boshini silash, kekka kishiga ehtiroq ko'rsatish, hatto soxta kulgi ortida yashiringan qayg'uni ko'ra bilish - bularning barchasi ezgulikdir. Bunday amallar ba'zan juda kichikdek tuyuladi. Ammo ularning samarasini hayot kechroq bo'lsa-da, qaytaradi.

Yaxshilik qalbdan chiqadi, qalb amri bilan amalga oshadi. Zero, Hakim Termiziy yozganidek, "Yaxshi amal boqiy qoladi va yo'q

bo'lmaydi". Allomaning fikricha, "bajarganingda qalbingga huzur-halovat, orom va taskinlik paydo bo'ladigan amal savob ishdir". Darhaqiqat, yaxshi ishning mukofotini inson avvalo, o'zida sezadi, ya'ni har savobdan keyin kayfiyati ko'tariladi, ko'ngli taskin topadi, biroving quvonchidan zavqlanadi, hayotidan rozi bo'ladi. Shuning uchun ham oqil, dili pok kishilar yaxshilik mukofotiga ehtiyoj sezmaydilar.

Bundan tashqari, ezgulik nafaqat shaxsiy foydani, balki jamiyat manfaatini ham ko'zlaydi. Agar har bir fuqaro boshqalarga nisbatan e'tiborli, mehribon bo'lsa, jamiyatda mehr-oqibat, birdamlik, o'zaro hurmat kuchayadi. Bu esa jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlaydi. Yaxshilik qilgan kishi hech qachon zarar ko'rmaydi. U ichki xotirjamlik, insoniy qadrlarga hurmat va Allohning roziligini topadi. Shuningdek, ezgulik haqida diniy manbalarda ham ko'plab misollar uchraydi.

Ehtimol, siz qilgan oddiy bir mehr kimgadir umid bergandir. Bir so'z, bir qarash, bir iltifot o'sha kishi uchun hayotini o'zgartiruvchi kuch bo'lishi mumkin. Xususan, bugungi kunda yosh avlod qalbidagi ezgulik, saxovat, insonparvarlik kabi fazilatlarni tarbiyalash juda muhimdir. Zero, ular ertangi jamiyat poydevorini barpo etuvchi kuchdir. Ota-onalar, ustozlar va yetuk insonlar o'z ibratlari bilan yoshlarni yaxshilikka yo'naltirishi zarur. Chunki biz qanchalik ezgu ishlar qilsak, shunchalik pok jamiyatda yashaymiz.

Qancha ko'p ezgu ishlar qilsak, vaqtlar o'tib, o'sha qilgan ezgu ishlarimiz o'zimizga qaytib kelar ekan. Demak biz sabrli bo'lishimiz kerak ekan, kimgadar yaxshilik qilib, undan mindatdorchiilik olmasak, jahll qilib, yaxshilik qilish yo'lidan qaytmaligimiz kerak.

Ilyos SHOQOSIMOV,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 14 561 nusxada chop etildi. Buyurtma 245. Hajmi 2 bosma taqob, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxonaning manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

G.MO'MINOVA.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda